


**QASHQADARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**Qashqadaryo viloyatining  
sanoat ishlab chiqarishi  
2022- yil yanvar - dekabr oylari  
(dastlabki ma'lumot)**



**Tel.: 75-221-32-36**



**[www.qashstat.uz](http://www.qashstat.uz)**

2022-yil yanvar-dekabr oylarida



Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, 15 549,9 mlrd. so'm jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi esa 68,2 % ni tashkil etdi.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimiz korxonalarini tomonidan 22 814,7 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-dekabr oyiga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi\* 110,5 % ni tashkil etdi.




\*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.

Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – 23,8 % ga, tog'-kon sanoati va ochiq konlarda ishlash – 7,5 %, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 68,2 %, suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilishda – 0,5 % ini tashkil etdi.


### Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1 712,5 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,5 % ini tashkil etdi.



2022- yil yanvar-dekabr oylarida



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 15 549,9 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 68,2 % ini tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,5 % ni (2021- yilning yanvar-dekabr oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 22,3 % (19,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 4,4 % (3,1 %) va quyi texnologiyalisi – 47,6 % (41,8 %) ni tashkil etdi.



Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi - 3,2 % (2021-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 153,0 %), metallurgiya sanoatining ulushi - 0,1 % (2021-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 21,8 %), to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 26,5 % (2021-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 137,4 %), oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi - 13,5 % (2021-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 110,3 %), rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi - 0,3 % (2021-yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan fizik hajm indeksi - 108,3 %) ni tashkil etdi.

**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdag'i mahsulotlarning o'sish sur'ati**

O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da\*



**Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalarini  
tomonidan ayrim turdag'i mahsulotlarni ishlab chiqarish**

2022- yilning yanvar-dekabr oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 51,6 ming tonna kalava ip (2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 127,9 % ga o'sgan), 104,4 ming tonna paxta chigit (98,4 %), 3,8 ming tonna o'simlik yog'i (tozalangan) (76,4 %) ishlab chiqarildi.

Sanoat mahsulotlari	2021-yil yanvar-dekabr	2022-yil yanvar-dekabr	Farqi +/-
Paxta chigit, ming tonna.	101,2	104,4	3,2
Paxta tolasi, ming tonna.	71,2	74,7	3,5
Yumshoq bug'doy va spelta uni, tonna	145 809,4	116 020,9	-29 788,5
Kalava ip tonna.	30 574,0	51 628,0	21 054,0
Aroq, ming liter.	2 556,9	2 865,5	308,6
Uzum vinosi, ming letr.	618,6	453,8	- 164,8
O'simlik yog'i (tozalangan), ming tonna.	3,9	3,8	- 0,1
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, tonna.	5 052,0	3 768,0	- 1 284,0

### 2022-yil yanvar-dekabr oylarida Aroq ishlab chiqarish sanoati

Viloyatimizda 2022- yil yanvar-dekabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 2 865,5 ming litr aroq ishlab chiqarildi. Aroq ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 112,1 % ni tashkil etdi.



### Uzum vino ishlab chiqarish sanoati

Viloyatimizda 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 453,8 ming letr uzum vino ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 73,4 % ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-dekabr oylarida


### Kalava ip ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida jami 51,6 ming tonna kalava ip ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 127,9 % ga ko'paygan.



### Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarishda, jami 3 768,0 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarildi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 75,0 % ni tashkil etdi.



### Metallurgiya sanoati

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 82,5 % ni tashkil etgan bo'lsa,


2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,1 % ni , fizik hajm indeksi esa, 20,6 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 18,5 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 2,0 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 107,6 % ni tashkil etgan bo'lsa,


2022- yilning yanvar-dekabr oylariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,4 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 170,7 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 624,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,1 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 90,3 % ni tashkil etdi,

2022- yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 16,1 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 110,8 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 2 885,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 21,6 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 126,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,7 % ni, fizik hajm indeksi 146,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 5 042,1 mlrd. so'mni tashkil etdi.



### Kiyim ishlab chiqarish



2021-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra, kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 93,3 % ni tashkil etgan bo'lsa,

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,4 % fizik hajm indeksi 92,9 % ni ishlab chiqarish hajmi esa 435,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

### Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021-yilning yanvar-dekabr oylari yakunlariga ko'ra kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 19,7 % ni, fizik hajm indeksi esa 103,1 % ni tashkil etgan.


Shuningdek, 2022-yilning yanvar-dekabr oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 22,1 % ni, fizik hajm indeksi 117,3 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 4 029,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.




### Elektr, gaz bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5 429,6 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 23,8 % ini) tashkil etdi.

2022-yilning yanvar-dekabr oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 115,7 % ni tashkil etdi.




### Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 122,7 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,5 % ni) tashkil etdi.



### Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish




O'tgan yilning mos davriga nisbatan boshqa guruhlarga kiritilmagan, qayta foydalanishga yaroqli yig'ilgan boshqa xavfsiz chiqindilar 102,0 % ni va oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar - 126,9 % ni tashkil etdi.

### Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 4 763,1 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2021- yilning yanvar-dekabr oylari mos davriga nisbatan 109,0 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 20,9 % ni tashkil etdi.

#### Oziq-ovqat mahsulotlari




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida viloyatimizda 2 744,1 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 7,7 % ga oshdi.

2021- yilning shu davriga nisbatan hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishda Nishon tumanida (120,3 %), Qarshi shahrida (113,4 %), Yakkabog' tumanida (110,1 %) va Ko'kdala tumanida (109,7 %) yuqori o'sish sur'ati kuzatildi.

#### Nooziq-ovqat mahsulotlar


Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 60,4 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 39,6 % ni tashkil etdi. 2021- yilning yanvar-dekabr oylarida iste'mol tovarlarining umumiyligi hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 62,0 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 38,0 % ni tashkil etdi.

Shu bilan birga, 2021- yilning mos davriga nisbatan oziq-ovqat mahsulotlarining o'sish sur'ati 107,7 %, nooziq-ovqat mahsulotlar o'sish sur'ati 110,2 % ni tashkil etdi.







### Shahar va tumanlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 25,3 %, shuningdek, Yakkabog' tumani 8,8 % ni, Shahrisabz shahari 7,7 % ni, Koson tumani 7,3 % ni, Kitob tumani 6,1 % ni tashkil etdi.




### Shahar va tumanlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 15,6 %, shuningdek, Chiroqchi tumani 9,1 % ni, Yakkabog' tumani 9,0 % ni, Koson tumani 8,4 % ni tashkil etdi.



### Shahar va tumanlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Shahar va tumanlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 33,2 % ni, Shahrisabz shahrida 8,1 % ni va Koson tumani 6,8 % ni tashkil etdi.



### Qashqadaryo viloyati shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari


Shahar va tumanlar kesimida sanoat ishlab chiqarishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nishon tumaniga to'g'ri kelib 22,9 % ni, shuningdek, G'uzor tumaniga 15,4 % ni hamda Qarshi shahriga esa 15,3 % ni tashkil etdi.



	o'sish sur'ati	mlrd. so'm
Qarshi sh.	109,1	3 480,4
Shahrisabz sh.	105,6	427,1
G'uzor t.	98,5	3 506,4
Dehqonobod t.	127,8	1 356,5
Qamashi t.	112,3	657,6
Qarshi t.	121,2	1 745,5
Koson t.	103,8	939,8
Kitob t.	117,2	685,4
Mirishkor t.	141,6	599,9
Muborak t.	100,2	628,5
Nishon t.	105,8	5 225,4
Kasbi t.	111,3	1 664,7
Ko'kdala t.	101,3	126,2
Chiroqchi t.	103,8	542,5
Shahrisabz t.	104,8	441,1
Yakkabog' t.	100,5	790,6

### Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatimizda 5 605 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 1019 tasi (mavjud korxonalar umumiy sonining 18,2 %) Qarshi shahriga, 598 tasi (10,7 %) Kitob tumaniga, 478 tasi (8,5 %) Yakkabog' tumani hissasiga to'g'ri kelmoqda.



**Tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va materiallar  
ishlab chiqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshililishi**

Viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishining yuqori o'sish so'ratlariga erishishda tayyor mahsulotlar, butlovchi qismlar va matreallar ishlab chqarishni mahalliylashtirish dasturining amalga oshirishni ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Mazkur dastur doirasida kiritilgan 83 ta loyiha bo'yicha 773,1 mlrd.so'mlik mahsulotlar ishlab chiqarildi. Mahalliylashtirish dasturi doirasida ishlab chiqarilgan mahsulotlardan 0,8 mln. AQSH dollari miqdorida eksport qilindi



Mahalliylashtirish dasturi doirasida 2022- yilning yanvar-dekabr oylarida 646 ta yangi ish orinlari yaratildi o'tgan yilning mos davri bilan taqqoslaganda yangi tashkil etilgan ish o'rirlari soni 2,7 martaga oshdi. Shu bilan birga, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan mahalliylashtirilgan mahsulotlar eksporti hajmining pasayganligi kuzatildi